

## QODIRIYA TA'LIMOTINING GENEZISI

*Kodirova Muattar Ganijonovna, Buxoro davlat pedagogika instituti  
o'qituvchisi, falsafa doktori (PhD)*

## GENESIS OF THE DOCTRINE OF KADIRIA

*Kodirova Muattar Ganijonovna, Teacher of Bukhara State  
Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD)*

## ГЕНЕЗИС УЧЕНИЯ КАДИРИЯ

*Кодирова Муаттар Ганижоновна, преподаватель Бухарского  
государственного педагогического института, доктор  
философии (PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlari hayotida muhim o'rinn tutgan qodiriyaning paydo bo'lishi, uning genezisi xususida tahlil berilgan. Buddaviylik dinidagi yaxshilikka undaydigan g'oyalalar qodiriya tariqatidagi bonyodkor g'oyalalar bilan qiyoslab tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** genezis, tasavvuf, qodiriya, zardushtiylik, meditatsiya, axloq, ruhiy kamolot, g'oya.

**Abstract:** This article analyzes the emergence and genesis of the Qadiriya, which played an important role in the lives of the peoples of Central Asia. The ideas that encourage goodness in Buddhism are analyzed in comparison with the creative ideas of the Qadiriya order.

**Keywords:** genesis, mysticism, Almighty, Zoroastrianism, meditation, morality, spiritual perfection, idea.

**Аннотация:** В статье анализируется возникновение и генезис Кадирия, сыгравшего важную роль в жизни народов Средней Азии. Анализируются идеи, поощряющие добро в буддизме, в сравнении с творческими идеями секты Кадирия.

**Ключевые слова:** генезис, мистика, кадирия, зороастризм, медитация, мораль, духовное созревание, идея.

**KIRISH (INTRODUCTION).** Tasavvuf insonni kamolotga yetaklaydigan mumtoz ta'lomitdir. Bu ta'lomitning axloq-odob kodeksi sifatida tasniflanadigan asosiya g'oyalari qadimdan xalqlarimiz hayotida muhim mezon sifatida amalda bo'lgan. Shu ta'lomitning boshqa ta'lomitlardan farqli yoki ular bilan o'xshash jihatlarini tadqiq etishga kirishishdan avval uning ma'naviy ildizlariga nazar tashlashni joiz deb bildik.

Qodiriya (XI-XII asrlarda O'rta Osiyoda keng tarqalgan tasavvufiy ta'lilot bo'lib, uning asoschisi Sayyid Abdulqodir Giloniy 1079-1165yy.) tariqatining genezisi xususida gapirganda eng avvalo qadimgi Turon zaminda mavjud bo'lgan va uzoq

vaqt mobaynida hukmronlik qilgan zardushtiylik dini va uning ikki yirik mazhablari sifatida e'tirof etilgan Moniy va Mazdak ta'lmotini ham kiritish mumkin.

"Avesto"da mehnat inson kamoloti va axloqiy sog'lomligining manbai sifatida ulug'lanadi. Bu fikrlarning ildizini "Avesto"dagi yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratishi zarurligi to'g'risidagi g'oyalardan izlamoq lozim.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHЛИLI (LITERATURE REVIEW).** Qodiriya ta'lomitining ma'naviy-falsafiy asosi zardushtiylik diniga borib taqaladi. "Avesto"ning "Minuxirad"



<https://orcid.org/0009-0006-8528-3549>  
e-mail: kdirbaev-95@mail.ru

qismida bu borada shunday yozilgan: yalqovlik, dangasalikdan hazar qil, toki bu dunyoda o‘z vazifangni bajarishdan orqada qolib ketmagin, zararli hayvon va jonivorlardan uzoqlashish va foydali hayvonlarni saqlab asrash ..., qasam ichishdan parhez qilishdir. Mashhur tarixchi Gerodot “Avesto” pandnomlari haqida shunday yozgan: “Zardushtning izdoshlari yolg‘onchilikni eng uyatli ish bilan tenglash tirardilar va yolg‘onchilikdan keyin qarz olishni uyatli hisoblardilar. Ularning aqidasicha, har kim qarzdor bo‘lsa, u yolg‘on ham gapira oladi”.

**TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).** Shu ma’noda buyuk ajdodimiz qodiriya tariqati asoschisi Abdulqodir Giloniyning “Mashg‘ullik ila forig‘lik” degan hikmatini nazariy jihatdan tahlil qilsak.

Yuqorida Zardushtning axloqiy qarashlari orqali kelib chiqqan xulosalardan insonni kamolotga yetkazuvchi o‘n xislat Abdulqodir Giloniya mufassal bayon etilgan. Bu xislatlar: *yolg‘on gapirmaslik, qasam ichmaslik, o‘zgaga yuk bo‘lmaslik, la’nat aytishdan saqlanish, tavoze va kamtarlik va h.k.*

Jahon dinlaridan biri buddizmni asoslagan Buddha nomi bilan mashhur Sidharta Gautama va islomdagi tasavvufning qodiriya tariqatini yaratuvchisi G‘avsul A’zam nomi bilan mashhur Abdulqodir Giloniya ta’limotlarida umumiy va xususiy tomonlar mavjud. Buddizm ta’limoti Xudo-xalloqning mavjudligini va vedalar dinini inkor etishi, unda rohiblik mavjudligi, qayta tug‘ilish g‘oyasi bilan islomdagi tasavvufning qodiriya tariqatidan farq qilsa-da, lekin ularning umumiy tomonlari ham mavjud.

Miloddan oldingi 556-yilda Shimoliy Bengaliyada tug‘ilib 475-yilda vafot etgan “ziyolangan”, “oliy haqiqatga erishgan” ma’noli nom bilan yuritilgan Buddha va 1685-yil tug‘ilgan Abdulqodir Giloniya ta’limotida quyidagi umumiylıklarni kuzatish mumkin.

I. Buddha o‘z ta’limotining asosiy qoidalarini “to‘rt oliy haqiqat” shaklida bayon etgan.

- Azob-uqubatlardan mavjud, ya’ni turmush azob-uqubatlardan iborat;

- Azob-uqubatlarning sababi bo‘lgan istak-nafs mavjud;

- Azob-uqubatlarning tugashi, ya’ni nirvana mavjud; azob-uqubatlardan xalos bo‘lish uchun kishilar o‘zlarining istak, orzu va nafslarini jilovlab olishlari kerak.

- Qiynoqlardan qutulish yo‘li mavjuddir.

Abdulqodir Giloniya ham inson ruhiy kamoloti uchun 4 bosqich: Shariat, Tariqat, Ma’rifat, Haqiqatni bosib o‘tishi lozim deganlar. Bular mazmunan farq qilsa-da miqdoran umumiyyidir.

**II.** Inson, qiynoqlardan qutulishi uchun, buddizm quyidagi narsaga amal qilishi kerak, deydi: 1.Meditatsiya. 2.Axloq. 3.Donolik.

Buddizmda meditatsiyaning quyidagi 8 ta oljanob yo‘li bor: 1.To‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri maslak, to‘g‘ri nuqtayi nazar. 2.To‘g‘ri niyat qilish. 3.To‘g‘ri o‘zini tutish. 4.To‘g‘ri so‘z. 5.To‘g‘ri harakat qilish. Yashashning to‘g‘ri daromad manbasiga ega bo‘lish. 6.To‘g‘ri muomalada bo‘lish. 7.To‘g‘ri xotira. 8.To‘g‘ri fikr yuritish.

Abdulqodir Giloniya ta’limotida meditatsiya holati zikr amaliyoti sifatida amalga oshadi. Unda ham Haqqa yetish, haqiqatga erishish uchun quyidagi 7 ta bosqichdan o‘tish orqali abadiyatga erishiladi: 1.Shariat. 2.Tariqat. 3.Haqiqat. 4.Ma’rifat. 5.Qutbiyat. 6.Qurbiyat 7.Abadiyat.

Bu 7 bosqich buddaviylikdagi yuqorida zikr etilgan yo‘llar bilan mos keladi.

**III.** Buddaviylik ta’limotiga ko‘ra olam uch bosqichli. Uning birinchisi – eng yuqori niiranadar. Nirvana – mutloq osoyishtalik hukm surgan olamdir. U yerda inson barcha turmush tashvishlaridan xalos bo‘ladi. Buddaviylardagi nirvana holati qodiriyyadagi fano va baqo holatiga o‘xshashdir.

**IV.** Buddadan hikmatli so‘zlar “Pancha Shila” asarida saqlangan. Abdulqodir Giloniya ham “Fatxur Rabboniy val fayzu-raxmony” (“Rabboniylikni anglash”), “Al g‘unya li tolibi tariqil Haqq” asarlarida o‘z o‘gitlarini yozib qoldirgan. Bu o‘gitlarning aksariyati inson axloqiy kamolotining asosiy kategoriyalari sifatida falsafa ilmi nuqtayi nazaridan e’tirofga loyiqdir.

Budda “O‘zingizga shamchiroq bo‘ling” desa, Giloniy “O‘zingni isloh qilish bilan mashg‘ul bo‘l.

Chaqimchilik va dunyo havaslarini tashla, kuching yetgunicha dunyo g‘amlaridan forig‘ bo‘l” deydi.

Budda aytadi: “Xush xulqli va o‘z fikr-xayollariga cho‘mgan kishining bir kuni yomon va buzuq odamning yuz yillik umridan afzal”. Abdulqodir bo‘lsa “Holingga voy bo‘lmasidan ishing haqida tafakkur qil. Tafakkur qalb ishlaridandir. Allohga shukr et, yomonlik ko‘rsang, bu tafakkurdan tavba qil. Shunda dining tirik, shaytoning o‘lik bo‘ladi. Shuning uchun har bir soatlik tafakkur bir kechalik ibodatdan afzal deyilgan”.

**V.** Buddaviylikda ham, qodiriyyada ham, ta’limotlari mohiyatan barcha jonli narsalarga muhabbat bilan qarashni, aql farmoniga bo‘ysunishni targ‘ib etadi.

**VI.** Jamiyatning o‘z davrida tabaqa, kastalarga bo‘linishi haqidagi braxmanlik ta’limotiga qarshi o‘laroq Buddha barcha kishilar teng huquqli, barobar deb e’tirof etadi. Xuddi shunday so‘fiylik tariqati bo‘lgan qodiriyyada ham shariatdagi yo‘nalish, mazhab, din, millat, irq, jins, tabaqa va darajasidan qat‘i nazar, barcha teng deb qaraladi.

**VII.** Buddaning “Pancha Shila”dagi nasihatlarida quyidagi axloq normalari ko‘rsatilgan: 1.Qotillikdan saqlanish. 2.O‘g‘rilikdan saqlanish. 3.Gumrohlikdan saqlanish. 4.Yolg‘on, qalbakilikdan saqlanish. 5.Mast qiluvchi narsalardan saqlanish. 6.Tushdan keyin ovqatlanishdan saqlanish. 7.O‘yin-kulgidan saqlanish. 8.Zeb-u ziynatdan saqlanish.

G‘avsul A’zam “Rabboniylikni anglash” asarlarida ham qariyb bularning barchasi qayd etilgan.

**XULOSA (CONCLUSION).** Demak, qodiriya ta’limotining kelib chiqishida bevosita zardushtiylik va buddavylikning ta’siri bo‘lgan:

- zardushtiylik dini uchun asosiy sanalgan axloq normalari qodiriyyada ham qadrlidir;
- inson kamoloti ustuvor bo‘lgan zardushtiylik g‘oyalarining qodiriya ta’limotida ham ta’siri saqlangan;

- “Avesto” va “Al-g‘unya li tolibi tariqil Haqq” asarlaridagi g‘oyalar bunyodkorligi bilan bugungi kun uchun ham dolzarbdir;

- buddizm va qodiriya o‘rtasida qariyb XVII asr o‘tgan bo‘lsa-da, ular to‘xtalgan umuminsoniy qadriyatlar ikkala ta’limot uchun ham xos va hozirgi kungacha zaruriydir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ислом энциклопедияси. Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти. –Тошкент: 2004. – Б.293.
2. Абдурахмонов А. Саодатга элтувчи билим. Мовароуннахр нашриёти. - Тошкент: 2002.- Б.218.
3. Шайх Саййид Абдулқодир Гилоний. Сиррул асрор. Мактубот.–Тошкент. Мовароуннахр нашриёти, 2005.–Б.15.

